

## TA'MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISHDA 4PL PROVAYDER XIZMATIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Xamidullayev Saydullo Baxodirjon o'g'li*

*TDIU "Menejment" fakulteti 4-kurs talabasi*

[Xamidullayevsaydullo29@gmail.com](mailto:Xamidullayevsaydullo29@gmail.com)

**Annotatsiya** Ushbu maqolada 4PL logistika provayderi ya'ni to'rtinchi tomon logistikasi xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari va qulayliklari, ushbu bosqichdagi provayderni respublikamiz shart-sharoitlariga moslashtirish va amalda qo'llash samaradorligini oshirish imkoniyatlari, XPO, DB Schenker kabi 4PL logistika Provayder kompaniyalarining faoliyati tahlili keltirilib, bir qancha statistik ma'lumotlar va tavsiyalar berilgan.

**Абстракт** В данной статье рассмотрены преимущества и удобства использования услуг логистического провайдера 4PL, т.е. логистических услуг четвертой стороны, возможности адаптации провайдера на данном этапе к условиям нашей республики и повышения эффективности его практического применения, такие как XPO, DB Schenker. Представлен анализ деятельности компаний-провайдеров 4PL логистики, анализированы статистические данные и даны некоторые рекомендации.

**Abstract** In this article, the advantages and conveniences of using the services of a 4PL logistics provider, i.e. the fourth-party logistics services, the possibilities of adapting the provider at this stage to the conditions of our republic, and increasing the effectiveness of its practical application, such as XPO, DB Schenker an analysis of the activity of 4PL logistics provider companies is presented, some statistical data and recommendations are given.

**Kalit so'zlar:** 4PL, Tashuvchi, Xizmat ko'rsatish, Integratsiya, Ta'minot zanjiri, Logistika boshqaruvi, Hamkorlik, Tashqi manbalar, Ma'lumot analitikasi, Mijozlar ehtiyojlari

**Ключевые слова:** 4PL, Перевозчик, Предоставление услуг, Интеграция, Цепочка поставок, Управление логистикой, Сотрудничество, Аутсорсинг, Аналитика данных, Потребности клиентов

**Keywords:** 4PL, Carrier, Service Delivery, Integration, Supply Chain, Logistics Management, Collaboration, Outsourcing, Data Analytics, Customer Needs

**Kirish** Party Logistics (PL) – ingliz tilidan olingan bo’lib, “tomon logistikasi” ma’nosini anglatadi. Fanda 1PL dan boshlab to 5PL gacha bo’lgan logistika provayderi tushunchalari mavjud bo’lib, har birining vazifalari bosqichma-bosqich ko’payib, kengayib boradi. Misol uchun, 1PL provayderida yukning egasi ishlab chiqarishdan tortib mahsulotning yakuniy iste’molchisigacha bo’lgan barcha harakatini o’zi rejalashtirib, barcha ta’minotchi va iste’molchilarni jalb qilishni o’z bo’yniga olsa, 2PL provayderi bu mas’uliyatning bir qismini bajarib, yuk egasiga qisman yordam beradi. Natijada yuk egasining bir muddat vaqti va sarf harajatlari qisman qisqaradi.

4PL provayderi mijozlarga yaxshi xizmat taqdim etish maqsadida bir nechta 3PL provayder kompaniyalari bilan aloqa o’rnatadi va barcha ishlarni muvofiqlashtiradi. Ayni shu xususiyati tufayli 4PL provayderi 3PL provayderlarining barcha qulayliklarini qamrab olgan holda yana bir qancha qulayliklarni o’z mijozlariga ya’ni yuk egalariga taqdim etadi. 4PL provayderi taqdim etadigan barcha xizmatlar esa quyidagilar:

- transport va yuk tashish;
- omborda saqlash, shu jumladan moddiy zaxirani boshqarish va o'zaro bog'lanish;
- qadoqlash va etiketkalash;
- loyiha boshqaruvi, manbalar va muzokaralar;
- logistika strategiyasi va tahlili;
- holis xizmat ko’rsatish bo’yicha maslahat berishni o’z ichiga oladi.

4PL provayderi bilan ishlash korxonalariga xarajatlarni tejash va imkoniyatlarga boy xizmatlardan foydalanish imtiyozlarini taqdim etishi mumkin. 4PL provayderi an’anaviy tarzda aoutsorsing qilingan ta’minot zanjiri xizmatlarini logistika samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan moslashtirilgan strategiyalar, vositalar va texnologiyalar arsenaliga birlashtiradi.

4PL konsepsiyasi 1990-yillarning oxirida global boshqaruv konsalting va professional xizmatlar ko'rsatuvchi "Accenture" kompaniyasi tomonidan kiritilgan. 4PL ta'minot zanjiri boshqaruvining yuqori darajasini ifodalaydi, bunda bitta tashkilot tarmoq ichidagi savdogarlar nomidan butun ta'minot zanjirini boshqarish va muvofiqlashtirish uchun javobgardir. 4PL provayderi operatsiyalarni optimallashtirish va umumiy ta'minot zanjiri faoliyatini yaxshilash uchun ilg'or texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan tushunchalardan foydalangan holda ta'minot zanjiri bo'ylab tovarlar, ma'lumotlar va xizmatlarning harakatini nazorat qiluvchi outsorsing hamkori sifatida ishlaydi. {1}

### **4PL (Fourth Party Logistics) va boshqa provayder xizmatlari o'rtasidagi farqlar:**

#### 1. Tashkilot darajasi:

- 3PL (Third Party Logistics): Ushbu modelda provayder logistika xizmatlarini bajaradi, masalan, omborni boshqarish, transport va tarqatish.

- 4PL: Bular, 3PL xizmatlarini birlashtirish va strategik boshqarish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. 4PL kompaniyalari, asosan, logistika zanjirini boshqaradi.

#### 2. Integratsiya darajasi:

- 3PL: Operatsion va taktik darajada xizmatlar ko'rsatadi.

-4PL: Strategik darajada xizmat ko'rsatadi va biznes jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan.

#### 3. Mijoz bilan aloqalar:

- 3PL: Mijozlarga faol logistik xizmat ko'rsatadi.

- 4PL: Mijoz bilan haqiqiy hamkorlikni o'rnatadi, mijozning ehtiyojlarini tahlil qiladi va ularning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

#### 4. Texnologik yechimlar:

- 3PL: Odatda, maxsus logistik modellar va tizimlarda mavjud.

- 4PL: Zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llaydi, masalan, ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt.

#### 5. Xizmat ko'rsatish doirasi:

- 3PL: Asosan, transport, saqlash va distribyutsiya.

- 4PL: Ulgurji va chakana savdoni, ta'minot zanjiri boshqarish, konsalting va logistika strategiyasini o'z ichiga oladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

4PL atamasi Accenture tomonidan kiritilgan atamadir. 4PL ta'minot zanjiri integratori sifatida ishlaydi. 4PL uchinchi tomon resurslari, texnologiyalari va ko'nikmalarini boshqarish orqali ta'minot zanjiri yechimini ishlab chiqaradi. Ta'minot zanjiri mutaxassislari 4PL operatsiyalarining barcha jihatlarini bilishadi, qoidalarni o'rnatishadi va mahsulotlar tsiklning har bir nuqtasida qaerda joylashganligini bilishadi. 4PL xizmat ko'rsatuvchi provayder kompaniya uchun barcha zarur logistika faoliyatini, shu jumladan uchinchi tomon logistika (3PL) boshqaruvini boshqaradi. 4PL buyurtmalarni boshqarish, ishlab chiqarish va logistika - asab tizimi ko'rinishidagi ta'minot zanjiri, jumladan, yakuniy ta'minot zanjiri uchun dizayn, muhandislik va ijodiy echimlarni taklif etadi. 4PL operatsion darajadagi kundalik boshqaruv uchun mas'uldir va kompaniya strategik darajada xalqaro menejment uchun javobgardir. 4PL biznesdagi boshqa kompaniyalar tomonidan olingan bilim va tajribani o'tkazadi, shuningdek, jarayonlarni tahlil qiladi, biznes xodimlari bilan ishlaydi va ularni o'qitadi. {2}

4PL 3 ta asosiy toifaga bo'linadigan keng ko'lamli funksiyalarni bajaradi:

1. *Strategik:* 4PL mahsulot, xizmatlar, mijozlar va bozorlar nuqtai nazaridan biznes ehtiyojlarini tahlil qiladi. Keyin u kompaniyaning maqsadlariga erishishi uchun yordam beradigan ta'minot zanjiri strategiyasini ishlab chiqadi. Ular xarajatlarni kamaytirishdan tortib buyurtmalarni yetkazib berishni soddalashtirishgacha bo'lgan jarayonni ishga tushirishi mumkin.

2. *Operatsion:* 4PL kundalik logistika faoliyatini tashkil qiladi. Bularga ta'minot zanjiri bo'ylab mahsulot harakatini rejalashtirish, ombor operatsiyalarini boshqarish, inventarizatsiya holatini nazorat qilish va mijozlarga xizmat ko'rsatish kiradi.

3. *Qo'llab-quvvatlash:* 4PL tashkilotlarga ta'minot zanjirlarining samaradorligini oshirishga yordam berish uchun maslahat va monitoring kabi qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif qiladi. Shuningdek, u ta'minot zanjirini optimallashtirish uchun ilg'or texnologik echimlarni taqdim etadi. {3}

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotning metodologik asosi 4PL formatidagi yetkazib berish tarmoqlarining ish faoliyati, ushbu shakldagi logistikadan foydalanishning afzalliklari, uning iqtisodiy samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tahlil jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil va nazariy izohlash usullari qo'llanilgan. Kuzatuv metodi orqali omborlardan foydalanish samaradorligi baholangan va abstrakt-mantiqiy fikrlash orqali tegishli xulosalar shakllantirilgan. Bundan tashqari, maqolaning ilmiy asosini tijorat sohasidagi darsliklar, xorijiy ilmiy nashrlarda olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar ma'lumotlari, mamlakatimizdagi savdo sohasidagi ommaviy-axborot va tijorat platformalari mutaxassislarining tahliliy va statistik ma'lumotlari tashkil etadi.

### Tahlil va natijalar


#### 1-jadval

Hisobot atributlari	2019-yilda bozor hajmi qiymati	2021-yilda bozor hajmi qiymati	2030-yilda daromadlar prognozi	CAGR -
Tafsilotlar	57,65 milliard dollar	49,84 milliard dollar	89,95 milliard dollar	2022-2030 yillarda 7,1%

Logistika autsorsingining barcha shakllari tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda, ammo 4PL qiymati rekord darajada oshib bormoqda. GlobalNewswire xabariga ko'ra, "4PL logistika bozori 2019 yilda 57,65 milliard dollarga baholangan va 2021 yilga kelib 49.84 milliard dollargacha passtlab ketgan. Bunga asosiy sabab qilib esa COVID 19 virusining dunyo bo'lab keng tarqalishini ko'satsak bo'ladi. Ushbu yo'nalishning 2030-yilga kelib bozor narxi 89.95 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Global 4PL logistika bozori yillik o'sish sur'ati (CAGR) 2022 yildan 2030 yilgacha 7.1% ga o'sishi kutilmoqda. {4}

### XPO

XPO – Shimoliy Amerika qit’asidagi Amerika, Kanada, Meksika va Qarib havzalarida yuklarni tez va samarali yetkazib berish bilan shug’ullanuvchi yirik 4PL logistika provayderi. Hisobida 43000 dan ortiq transport vositalari va tirkamalari,



13000 haydovchisi va 301 ta yetkazib berish shaxobchasi mavjud bo’lgan ushbu kompaniya yiliga 13 milliondan ziyod yuk va Tovar aylanmasiga ega.

Yuqoridagi grafik XPO kompaniyasining 2015-yildan boshlab to 2023-yilga qadar yillik daromadlarini o’zida aks ettirgan.

Ko’rishimiz mumkinki, ushbu kompaniya Amerika bozorida yuqori ulush egallaydi. Masalan, 2018-yilda uning yillik daromadi 17.279 million dollarni tashkil etkan bo’lsa kelasi yil, ya’ni, 2019-yildan boshlab COVID 19 virusi sababli kompaniya daromadi sezilarli darajada pastlagan. Iqtisodiy qulashga qaramay hozirga qadar o’zining iqtisodiyotini sezilarli tikkalab olgan. {4}

### **DB Schenker**

Raqobatbardoshlikni va ta'minot zanjiri tejamkorligini ta'minlaydigan qo'shimcha qiymatli xizmatlarni taklif qilish, innovatsion va barqaror yechimlar bilan ko‘plab asosiy tarmoqlarga xizmat ko‘rsatadigan integratsiyalashgan logistika va global savdo bilan shug’ullanuvchi ushbu 4PL logistika provayderi dunyo bo’ylab 1850 dan ortiq shaxobchalarga, 72700 dan ortiq ishchi xodimlar va 725 dan ziyod bo’lgan omborlar tarmog’iga ega. Ushbu kompaniya nafaqat quruqlik, balki havo va dengiz yuk tashuvlarida ham o’zining yetarli darajada obrosiga ega. Kompaniya kuniga 5500 ta konteynerda yuklarni dengiz portlariga yetkazsa, 130 dan ortiq davlatlarda 700 dan ortiq aeroportlarda o’zining havo yuklarini yetkazib berish punktlari ega. {5}

### **O'zbekistonda 4PL (Fourth Party Logistics) xizmatlarining rivojlanishi:**

**Raqobatbardosh muhit:** O'zbekistonda 4PL xizmatlariga talab tobora ko’paymoqda, chunki ko'plab kompaniyalar logistika zanjirlarini optimal boshqarishga harakat fonida o'z raqobatgacha ko'proq e'tibor qaratmoqda.

**Infrastruktura rivojlanishi:** Mamlakatda transport va logistika infratuzilmasi yangilanib, kengaymoqda, bu esa 4PL xizmatlarini joriy etish uchun turtki bo'lmoqda.

**Texnologik yangiliklar:** Zamonaviy texnologiyalar, masalan, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomatizatsiya hamda sun'iy intellekt xizmatlari, 4PL modelining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Xalqaro hamkorlik:** O'zbekistonning geografik joylashuvi xalqaro savdo yo'llarida muhim o'rin egallaydi, bu esa 4PL xizmatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Sektorlararo yondashuv:** 4PL xizmatlari turli sohalarga, masalan, qishloq xo'jaligi, sanoat, va savdo sohalariga mos ravishda taklif etilishi mumkin.

O'zbekistonda 4PL xizmatlarining rivojlanishi, logistika jarayonlarini optimallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Kompaniyalar uchun samarali va integratsiyalashgan logistika yechimlarini taqdim etish orqali, O'zbekiston iqtisodiyotining global bozor bilan integratsiyasini yanada mustahkamlash mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

4PL provayderlarining ta'minot zanjirini boshqarishdagi ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu xizmatlar orqali kompaniyalar logistika jarayonlarini yanada samarali va tezkor boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Sun'iy Intellekt va IoT texnologiyalari yordamida 4PL provayderlari ta'minot zanjiri bosqichlarini avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslarni tejaydi. Shu bilan birga, 4PL provayderlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni kuzatish va tahlil qilish imkonini yaratadi, bu esa kompaniyalarga iste'molchi ehtiyojlariga tezkor javob berish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Yurtimizda 4PL provayderni yanada rivojlantirish maqsadida, xalqaro hamkorlik darajamizni yanada yuqoroq cho'qqilarga olib chiqishimiz, respublika miqyosida yo'l infratuzilmasini global standartlarga moslashtirishimiz kerak bo'ladi. Bundan tashqari yurtimizdagi savdo hajmini oshirib logistik xizmat ko'rsatish sohasiga ko'proq e'tibor qaratishligimiz kerak bo'ladi.

Yo'llardagi turli xil vaziyatlarni baholash va tekshirish ishlarini shaffoflashtirish maqsadida yanada ko'proq yangi texnologiyalar olib kirishimiz, tirbandliklarni oldini

olishlik yoxud tirbandlik yuz bergan hollarda ularni sun'iy intellekt yordami asosida tezroq bartaraf etishlik choralari ko'rishligimiz kerak.

Logistik oqimni yaxshilashlik, yurtimizga ko'plab dunyo tan olgan logistik kompaniyalar kirib kelishini ta'minlash maqsadida bojxona tekshiruvlarini soddalashtirish, unga ketadigan vaqtni kamaytirish va ish unumdorligini oshirishimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://www.extensiv.com> sayti
2. The role of 4PL provider as a mediation and supply chain agility, Macide Berna Çaglar Kalkan va Kenan Aydın, <https://www.emerald.com/insight/2631-3871.htm>
3. <https://www.mecalux.com/blog/4pl> 4PL:to'liq ta'minot zanjiri outsorsingi
4. <https://www.polarismarketresearch.com/industry-analysis/fourth-party-logistics-market> , 4PL Logistics Market Share, Size, Trends, Industry Analysis Report, By Type (Synergy Plus Operating Model, Solution Integrator Model, Industry Innovator Model), By End-User (Aerospace & Defense, Automotive, Consumer Electronics, Food & Beverages, Industrial, Healthcare, Retail, Others); By Region; Segment Forecast, 2022 – 2030 kitobining 114-sahifasi
5. <https://www.xpo.com>
6. <https://www.dbschenker.com>
7. Gude, V., & Vo, K. (2020). "Logistics and Supply Chain Management." *Journal of Business Logistics*.
8. Hertz, S., & Alfredsson, M. (2003). "Strategic Development of Third Party Logistics Providers." *Industrial Marketing Management*.
9. Wallenburg, C. M., & Hof, H. (2013). "Four Types of 4PL Providers: A Typology." *European Journal of Transport and Infrastructure Research*.
10. Bowersox, D. J., Closs, D. J., & Cooper, M. B. (2013). "Supply Chain Logistics Management." McGraw-Hill.
11. Lieb, R. C., & Bentz, B. (2005). "3PL and 4PL: What They Do and How They Have Evolved." *Transportation Journal*.
12. Kumar, A., & Singh, R. (2015). "Role of 4PL in Supply Chain Management." *International Journal of Supply Chain Management*.
13. Khan, A., & Qureshi, M. N. (2019). "Impact of 4PL on Supply Chain Performance." *International Journal of Logistics Systems and Management*.